CHORVOQ ERKIN TURISTIK ZONASIDA INVESTITSIYALARNI JALB ETISH STRATEGIYALARI

Abdulloyeva Rushana Kurbonali qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm kafedrasi 1-bosqich magistranti
Shomurodova Sh.G‘
Chirchiq davlat pedagogika universiteti g.f.f.d (PhD), dotsent

Annotatsiya: Maqolada Chorvoq erkin turistik zonasining infratuzilmasi, dam olish hududlarining investitsion jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqotda mazkur hududning rekreatsion resurslari, mavjud infratuzilmasi, investitsion muhitdagi muammolari hamda global tajribaga asoslangan rivojlanish strategiyalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Tog‘ hududlari, turizm infratuzilmasi, investitsiya, davlat-xususiy sheriklik, turizm klasteri, rekreatsion resurslar, turizm marketingi, xalqaro investitsiyalar.

Аннотация: В статье рассматриваются инфраструктура, инвестиционные аспекты рекреационных зон свободной туристической зоны Чарвак. Также рассматриваются рекреационные ресурсы данной зоны, существующая инфраструктура, проблемы инвестиционной среды и стратегии развития, основанные на мировом опыте.

Ключевые слова: Горные регионы, туристическая инфраструктура, инвестиции, государственно-частное партнерство, туристический кластер, рекреационные ресурсы, маркетинг в сфере туризма, международные инвестиции.

Annotation: The article covers the infrastructure of the Charvak free tourist zone, investment aspects of recreation areas. The study also examines the recreational resources of this area, existing infrastructure, problems in the investment environment, and development strategies based on global experience.

Keywords: Mountainous regions, tourism infrastructure, investment, public-private partnership, tourism cluster, recreational resources, tourism marketing, international investments.

Kirish.

So‘nggi yillar mobaynida butun dunyo bo‘ylab turizm tobora ommalashib bormoqda. Bu haqida Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO) o‘zining har yillik statistika va hisobotlaridan bilib olishimiz mumkin. Mazkur statistikalar qatorida tog‘ turizmi alohida o‘rin egallagan. Xususan, Butunjahon turistik tashkiloti so‘nggi ma’lumotiga ko‘ra, “tog‘ turizmi barcha xalqaro sayyohlarning 9% dan-16% gacha qismini tashkil qiladi. Bu raqamlar xalqaro sayyohlarning kelishiga

ISSN 3030-3907

asoslangan. Chunki ichki tog‘ turizmi bo‘yicha ishonchli statistika hali mavjud emas”.[9]

Tog‘ turizmining xalqaro miqyosida yaxshi suratlarda o‘sib borayotgani O‘zbekiston hududida ham ushbu turizm turini tashkil etish va uni yanada rivojlantirish kerak ekanligidan dalolat beradi. Bu borada mamlakatimizda ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-dekabrdagi PF-5273-son farmoni bilan Toshkent viloyatida “Chorvoq erkin turistik zonasi” tashkil etilgan bo‘lib, tog‘ turizmining bir necha turlari zona hududida o‘z faoliyatini olib bormoqda.

Asosiy qism. Tog‘ hududlari – yuqori rekreatsion salohiyat, noyob landshaftlar, ekologik toza muhit va yilning turli fasllarida turistik faoliyatni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lgan makonlar hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Shveysariya Alp tog‘lari, Kanada Kolumbiya platosi, Gruziya Gudauri majmuasi, Turkiya Uludog‘ kurorti kabi manzillarni jadal rivojlantirishda infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda investitsiyalar oqimini jalb etish asosiy omillardan biri bo‘lgan.

O‘zbekistonning tog‘ hududlari, xususan, **Chorvoq erkin turistik zonasi** so‘nggi yillarda milliy turizm industriyasini modernizatsiya qilish jarayonida strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Erkin turistik zonalar tog‘ turizmini rivojlantirishning eng samarali mexanizmlaridan biridir. Ular infratuzilmani yaratish, investitsiya oqimini kuchaytirish, barqaror ekologik boshqaruvni joriy etish, hududning raqobatbardoshligini oshirish hamda mahalliy iqtisodiyotning jonlanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Mamlakat Prezidenti tomonidan tasdiqlangan turizm infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida mazkur hududni xalqaro standartlarga mos rekreatsiya markaziga aylantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Biroq to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish hamda infratuzilmaviy loyihalarni tizimli boshqarish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud.

Chorvoq ETZ Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida joylashgan bo‘lib, tog‘-ko‘l landshaftlari, Chorvoq suv ombori, Chimyon va Beldersoy dam olish zonasi hududining asosiy qismini o‘z ichiga oladi.

Hududning turistik salohiyati quyidagi yo‘nalishlarda yuqori baholanadi. Chorvoq erkin turistik zonasida turistlarga:

- ✓ yozgi dam olish uchun qulay suv havzasi;
- ✓ Yevropa standartlariga yaqin bo‘lgan chang‘i trassalari;

[9] https://www.untourism.int/news/tourism-s-potential-for-mountain-ecosystems-and-communities-outlined-in-new-report

ISSN 3030-3907

- ✓ tog‘ etagidagi yengil trekking va ekstremal sport imkoniyatlari;
- ✓ ekoturizm va gastronomik turizm uchun sharoitlar mavjud.

Turistlar uchun infratuzilmani yaxshilash borasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. yangi yo‘llar rekonstruksiya qilindi;
2. suv va elektr ta’minoti modernizatsiya qilindi;
3. mehmonxonalar va oromgohlar soni oshdi;
4. ko‘ngilochar komplekslar barpo etila boshlandi.

Ammo ko‘p yillik strategik rejalarga ko‘ra, hudud hali to‘liq turizm klasteri sifatida shakllanmagan. Jumladan:

- ➢ 4–5 yulduzli mehmonxonalar yetishmaydi;
- ➢ qishki sport infratuzilmasi cheklangan;
- ➢ suv sporti uchun xalqaro standartdagi xizmatlar kam;
- ➢ ekologik monitoring, servis sifati va kadrlar yetishmasligi kuzatiladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek zona hududiga investitsiya kiritishda bir qancha muammolar mavjud. Ular quyidagilar:

- ❖ Loyiha hujjatlarida qat’iy tartibning yo‘qligi;
- ❖ Kompensatsiya va soliq imtiyozlarining investorlarga yetarli targ‘ib qilinmasligi;
- ❖ Raqobatga asoslangan tender tizimlarining yetarlicha shaffof bo‘lmasligi;
- ❖ Xususiy sektor uchun kredit foizlarining yuqoriligi;
- ❖ Yer ajratish jarayonining murakkabligi.

Mazkur muammolar Chorvoq erkin turistik zonasining to‘liq investitsion salohiyatdan foydalanishiga to‘siq bo‘lmoqda. **Tog‘ hududlarida xorij tajribalarini o‘rgangan holda investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar mavjud. Ular quyidagilar:**

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish Chorvoq ETZda quyidagi loyihalar amalga oshirilishiga sabab bo‘ladi:

- ko‘p funksiyali mehmonxonalar va “resort” majmualari;
- qishki sport markazlari (chang‘i trassalari, kanat yo‘llari);
- yirik akva-parklar;
- ekologik kempinglar;
- suv sporti uchun xalqaro standartdagi inshootlarni amalga oshirish.

Hudud uchun quyidagi imtiyozlar samarali bo‘lishi mumkin:

1. 5–10 yilgacha bo‘lgan soliq ta’tili;
2. Import asosida keltiriladigan turistik uskunalar uchun bojxona bojidan ozod qilish;
3. Yer ajratishda uzoq muddatli imtiyozli ijaraga berish;
4. Kreditlar uchun subsidiya ajratish.

ISSN 3030-3907

Mazkur imtiyozlar investorlar xavfini kamaytiradi va kapital oqmini jadallashtiradi. Investorlar uchun xavflarni minimallashtirish ularning sonini ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda iqtisodiyotning ixtiyoriy sohasida klaster tizimida ish olib borish ancha samaraliroq hisoblanadi. Shu asnoda Chorvoq erkin turistik zonasini klaster tamoyili asosida rivojlantirish quyidagi afzalliklarni beradi:

- xizmatlar o‘rtasida sinergiya effekti shakllanadi;
- logistika xarajatlari kamayadi;
- birgalikdagi marketing strategiyasi yaratiladi;
- hududning yagona “brand identity”i shakllanadi.

Klaster nechta asosiy yo‘nalishni qamrab olishi kerak:

- sport turizmi (chang‘i uchish, snoubord, paraplan);
- suv turizmi (kaytserfing, dayving, yelkanli sport);
- ekstremal turizm;
- oilaviy rekreatsion turizm;
- ekologik turizm.

Xulosa. Chorvoq erkin turistik zonasida investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hududning tabiiy-geografik imkoniyatlari, transport-infratuzilma salohiyati hamda turizmning turli yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar mavjud. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish esa tizimli, uzoq muddatli va innovatsion yondashuvga asoslangan investitsiya strategiyalarini amalga oshirishni talab qiladi.

Xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay investitsion muhitni yaratish, infratuzilma loyihalarini diversifikatsiya qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish hamda marketing va brending siyosatini kuchaytirish hududning raqobatbardoshligini oshiradi. Shuningdek, ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan loyiha tashabbuslari Chorvoqni nafaqat dam olish maskani, balki xalqaro standartlardagi zamonaviy turistik makonga aylantirishga xizmat qiladi. Ma’lumotlar Chorvoq erkin turistik zonasini Markaziy Osiyodagi yirik rekreatsion markazlardan biriga aylantirish imkoniyatini asoslaydi.

Umuman olganda, taklif etilgan strategiyalarni izchil amalga oshirish Chorvoq erkin turistik zonasida turizm industriyasining jadal rivojlanishini ta’minlab, yangi ish o‘rinlari yaratish, hududiy iqtisodiy faollikni oshirish va O‘zbekistonning jahon turizm bozoridagi o‘rnini mustahkamlashga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil5-dekabrdagi PF-5273-son ““Chorvoq” erkin turistik zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni

ISSN 3030-3907

2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. **Chorvoq iqtisodiy-turistik zonasini rivojlantirish konsepsiyasi.** — Toshkent, 2022.
3. Shomurodova Sh.G‘., Sharipov Sh.M . “Chorvoq erkin turistik zonasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik asoslari” monografiya. Toshkent: “Universitet”- 2022.
4. www.unwto- Butunjahon turistik tashkiloti rasmiy sayti.
5. www.lexuz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
6. www.untourism - Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan agentligi rasmiy sayti.
7. www.chorvoqtrz.uz - Chorvoq erkin turistik zonasi direksiyasi rasmiy sayti.

ISSN 3030-3907